

BAA ga dam olishga ketayotgan sayyoohlar uchun Eslatmalar

Sayyoohlar uchun tezkor aloqa:

Toshkent sh.:
+998 78 113 47 77

BAA:
Dubaydag'i ofis: +(9714) 2677651 (10.00 dan 19.00 gacha)
Sharjadagi ofis +(9716) 5309993 (10.00 dan 19.00 gacha)
Soat 19.00 dan 10.00 gacha qo'ng'irpq qilish mumkin bo'lgan raqam
+(9716) 5286057 (Al-Halidiya resephshni)
24/7 xizmatda:
+(97155) 6092300

Aeroportda kutib olish

Dubay xalqaro aeroportiga (Terminal 1, 2, 3) yetib kelgach, sayyoohlarni aeroport binosidan chiqishlarida "Al Khalidiah Tourism" kompaniyasi xodimlari "Al Khalidiah Tourism" yozuvli tablichka bilan kutib oladilar. Sayyoohlarga gid bilan uchrshuv vaqtini xabar qilgan holda, ularga salomlashuv konvertlari beriladi.

Sharja va Abu-Dabi aeroportlariga (Terminal 1, 2, 3) yetib kelgach, sayyoohlarni aeroport binosidan chiqishlarida "Al Khalidiah Tourism" kompaniyasi xodimlari "Al Khalidiah Tourism" yoki sayyooh ismi yozilgan tablichka bilan kutib oladilar. Sayyoohlarga gid bilan uchrshuv vaqtini xabar qilgan holda, ularga salomlashuv konvertlari beriladi.

"Marhaba servis" yoki "Ahlan servis" xizmatlariga buyurtma bergan sayyoohlar aeroport binosidan chiqishda ushbu xizmatni ko'rsatuvchi, maxsus tablichkalar ko'tarib olgan xodimlarga murojaat qilishlari lozim. Mos ravishda pasport nazorati yonidagi "MARHABA" yoki "AHLAN" qatorlariga borib qo'shilishadi.

Bizning vakillarimiz mehmonlarni avtobus yoki mashinalarga (buyurtma qilingan bo'lsa) mehmonxonaga eltish uchun kuzatib qo'yishadi. Jamoaviy transfer buyurtma qilingan taqdirda, sayyoohlar aeroportda avtobusni tahminan 2 soatgacha kutishlariga to'g'ri kelishi mumkinligini hisobga olishlari kerak.

Agar mehmon bizning xodimimizga murojaat qilmasa, samolyot qo'ngandan keyingi minimal kutish vaqt 2 soatni tashkil etishi mumkin, ushbu vaqt davomiyligi shaxsiy sabablar yoki kutib oluvchining ixtiyoriga bog'liq bo'ladi.

Mehmonxonaga joylashish

Check-in (joylashish) barcha mehmonxonalarda soat 15.00 da, check-out (chiqish) esa 12.00 da.

Chiqish kuniga qadar mehmonlarga mehmonxonadan aeroportga chiqib ketish vaqtি ko'rsatilgan faks yuboriladi. Agar transfer haqida ma'lumot berilmasa, sayyooh qabul qiluvchi tomon (gid yoki ofis) bilan aloqaga chiqishlar zarur.

Ketish kuni mehmonlar ofis xodimlari ma'lum qilgan vaqtida "resepshen" yoki "konserj" qatoriga borishlari lozim. Adashmaslik uchun sayyooh uchish terminalini aniqlashtirib olishi zarur (1, 2 yoki 3).

- ro'yxatga olish boshlanishi – uchishdan 3 soat avval
- ro'yxatga olish tugatilishi – uchishdan 45 daqiqa avval
- bortga kirish to'xtalishi – uchishga 10 daqiqa qolganida

Aeroportga kirkach, sayyoohlar tabloida ko'rsatilgan ro'yxatdan o'tish qatoriga mustaqil ravishda boradilar.

Xoishga ko'ra, avvaldan bizga ma'lum qilgan holda, aeroportda (MARHABA servis) navbatsiz ro'yxatdan o'tish (VIP) xizmatidan foydalanish mumkin.

Vaqt

Nur-Sulton shahridan 2 soat orqada.

Qo'shimcha ma'lumotlar Bojxona tekshiruvi

1000 tagacha sigaret, 200 tagacha sigara va 2 kg gacha tamaki olib o'tishga ruxsat etiladi, lekin ko'p xollarda ushbu mahsulotlar BAA da arzon. 21 yoshdan katta bo'lgan musulmon bo'lмаган shaxslar shaxsiy iste'mol uchun 2 litr spirtli ichimlik, vino yoki piva olib o'tishlari mumkin. Giyohvand moddalar va o'qotar qurollarni noqonuniy olib kirish qattiq jazolanadi. Valyuta olib kirich va olib chiqishga ta'qiq mavjud emas.

Shahar bo'y lab sayr qilishda o'zingiz bilan spirtli ichimlik olib yurish umuman tavsiya etilmaydi. Agar sizni tekshirish uchun to'xtatishsa, siz spirtli ichimliklarni noqonuniy tarqatishda ishtirok etmasligingizni isbotlay olmaysiz va hatto nisbatan liberal Dubayda ham sanksiyalardan qochib qutula olmaysiz. Sharjaga kelsak, bu amirlikda sizning bunday qilmishingiz jinoiy huquqbazarlik sifatida baholanadi.

BAAda xorijliklarga spirtli ichimliklarni maxsus ruxsatnomasiz erkin sotadigan yagona do'kon eng kichik amirlik hisoblangan Ajmanda joylashgan, Ajman Kempinski mehmonxonasidan 200 metr uzoqlikda joylashgan. Ushbu do'konning narxlari va assortimenti DUTY FREE do'konidagi narxlari va assortimentga yaqin. To'g'ri, Ajmandan Dubayga xarid qilingan mahsulot bilan siz spirtli ichimliklarni olib o'tish jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan "quruq" Sharja shtatidan o'tishingiz kerakligi, masalan, jinoiy huqubzavarlik sifatida ko'riliши vaziyatni juda murakkablashtiradi.

Mamlakat haqida

Mamlakat: BAA

Poytaxti: Abu-Dabi shahri

Tili:

Birlashgan Arab Amirligining rasmiy tili arab tilidir. Biznes, rasmiy yozishmalar va millatlararo muloqot tili siatida ingliz tili keng qo'llaniladi.

Milliy pul birligi:

BAA milliy pul birligi – dirham (DHS) bo'lib, u 100 filsga teng. Dirhamning ayirboshlash kursi ancha barqaror, oxirgi yillarda kurs 1 AQSH dollari 3,65 DHS ga teng darajada saqlanib kelinmoqda. Muomaladagi banknotalar: DHS 1000, 500, 100, 50, 10, 5.

Valyuta ayirboshlash ayirboshlash shoxobchasida, bank filialida yoki mehmonxona qabulxonasida amalga oshirilishi mumkin. Dunyoning aksariyat bank tizimlarining kredit kartalari ko'pgina mehmonxonalarda xizmatlarga to'lov uchun qabul qilinadi: VISA, AMERICAIN EXPRESS, EUROCARD.

Geografik joylashuvi

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) Arabiston yarim orolida Fors ko'rfazining janubiy qirg'og'i bo'y lab yetti amirlikdan iborat davlatdir. Mamlakat poytaxti Abu-Dabi qirg'oq bo'yidagi orolda joylashgan bo'lib, Shayx Zayd masjidi bilan mashhur bo'lib, u 40 000 dan ortiq namozxonaga mo'ljallangan va billur qandillar bilan yoritilgan. Dubaydag'i dunyoning eng baland osmono'par binosi Burj Xalifa, ulkan savdo markazlari va o'ziga xos uslubdagi ko'ngilochar maskanlar sayyoohlarni o'ziga tortadi.

To'lovlar

Tourism dirham fee

Tourism dirham fee – BAA mehmonxonalaridagi sayyoqlik solig'i. Abu-Dabi, Dubay, Ras al-Xayma amirliklaridagi mehmonxonalar, kvartiralar, mehmon uylari va dam olish uylari kabi mehmonxona korxonalarining istalgan toifasida joylashgan mehmonlardan olinadi.

Soliq miqdori mehmonxonaning yulduzcha reytingi va sayyoohlar qoladigan xona toifasidan kelib chiqqan holda belgilanadi va bir kechada bir xona uchun mehmonlar tomonidan to'lanadi.

Amirliklar: Dubay va Ras al-Xayma

Turar joy toifasi:

5* - 20 dirham bir kechada bir xona uchun

4* - 15 dirham bir kechada bir xona uchun

3* va 2* - 10 dirham bir kechada bir xona uchun

1* - 7 dirham bir kechada bir xona uchun

Amirlik: Abu-Dabi

Istalgan turar joy toifasi - 15 dirham bir kechada bir xona uchun

Amirliklar: Sharja, Ajman, Umm el-Quveyn, Fujeyra

"TOURISM DIRHAM FEE" olinmaydi